

UDK:632,934

POMIDOR KUYASI UCHUN “TUTABS-SGM” FEROMON TUTQICHINI SAMARADORLIGI

Mambetnazarov Asan Bisenbaevich, Rasulova Madina Shuxratovna

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti

Annotation. *This article presents the results of observations and tests conducted to determine the effectiveness of a pheromone trap (Tutabs-SGM, Tuta absoluta, 0.6 mg/g) against tomato moth.*

Key words: *Tomato, insect, pheromone pen, tomato moth, egg, butterfly, larva, microorganism, tubercle temperature.*

Pomidor kuyasi – (*Tuta absoluta*) pomidor o‘simligining ashaddiy kushandasi bo‘lib, ekinlarning mevasi va bargiga jiddiy zarar yetkazadi. Pomidor kuyasining vatani Janubiy Amerika hisoblanib, Yevropa, Osiyo va MDH davlatlarida ham uchraydi. Kapalagi 10 mm bo‘lib, ipsimon mo‘ylovlarga ega. Old qanotlarida qora dog‘lari bor. Tuxumi silindirsimon sariq yoki oq-sariq bo‘lib, uzunligi 0,36 mm, eni 0,22 mm. Lichinkasining boshi qoramtir bo‘lib, yorug‘ joyda yashil rangga aylanadi. 2 va 4 yoshdagi lichinkalari pushti rangda. Pomidor kuyasi pomidor o‘simligining ochiq va yopiq turdagi ekinzorlarida uchraydi. Yuqori reproduktiv samaradorlikka ega hasharot bo‘lganligidan lichinkasi ozuqa topmaguncha tinchlanmaydi. Lichinkasi umri davomida 4 ta yoshni o‘taydi. Havo harorati va tashqi muhit ta’siriga qarab, hasharotning yashash davri 29-38 kunni tashkil etadi.

So‘ngi yillarda dunyoda pomidor o‘simligi zararkunandalariga qarshi kurashda bir qator ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha izlanishlar davom etmoqda, jumladan: kuya tarqalgan mamlakatlarda olingan ma’lumotlar ko‘rsatishicha ushbu zararkunandaga qarshi kurashish o‘ta qiyin. Bunda samara olish uchun bir qator tadbirlarni kompleks holda qo‘llash talab etiladi. Bu tadbirlar qatoriga zararkunanda mavjudligini qayd qilish ya’ni (feromon tutqichlar) kiradi.

2023 yil mavsumida “Tutabs-SGM, Tuta absoluta, 0,6 mg/ga” feromon tutqichining samaradorligini aniqlash maqsadida ishlab chiqarish sharoitida tajribalar Toshkent viloyati O‘simliklar genetik resurslar ilmiy-tadqiqot instituti

тажриба майдонида олиб борилди. Tajribada pomidorning “Cherri” navidan foydalanildi. Monitoring kuzatuv 20 iyun kuni qo‘yildi va 02-iyul kuni tugatildi. Andoza sifatida «Osiyoximimport» MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan feromon tutqich gektariga 5 donadan foydalanildi. Tajribalar 3 takrorlanishda quyidagi sxema bo‘yicha olib borildi:

1. Tajriba (variant) - Tutabs-SGM, Tuta absoluta, 0,6 mg/ga feromon tutqichi ("Best-green" IP MChJ O‘zbekiston) gektariga 5 dona.

2. Andoza (variant) – (“Osiyoximimport” MChJ O‘zbekistan) feromon tutqichi 1 ga 5 dona.



Rasm. Feromon tutqichlarni kuzatish jarayoni

Jadval

“Tutabs-SGM”feromon tutqichining pomidor kuyasi zararkunandasini o‘ziga jalb qilishi (tutib olish xususiyati) dala kuzatuvlari, 2023 y

Variantlar	Takror- lanish	1 ta feromon tutqichlarga tushgan kapalaklar soni, dona						Oʻrtacha, dona
		1	2	5	7	10	12	
		20.06	21.06	25.06	27.06	30.06	2.07	
Tajriba								
"Best-green" IP MChJ Oʻzbekiston Tutabs-SGM, Tuta absoluta, 0,6 mg/ga	1	12	6	9	2	1	4	5,6
	2	13	5	2	4	1	2	4,5
	3	11	6	4	3	0	7	5,1
Jami	-	36	17	15	9	2	13	15,3
Oʻrtacha 1 ta f/t., tak.	-	12	5,6	5	3	0,6	4,3	5,0
Andoza								
«Osiyoximimport» MChJ Oʻzbekistan	1	11	6	5	2	2	1	4,5
	2	8	4	3	1	1	0	2,8
	3	4	3	4	5	2	0	3,0

Jami	-	23	13	12	8	5	1	10,3
O'rtacha 1 ta f/t., tak.	-	7,6	4,3	4	2,6	1,6	0,3	3,4

Tutabs-SGM, Tuta absoluta, 0,6 mg/ga feromon tutqichini 1 ga 5 donadan 2023 yil 20-iyun kuni ilindi. Tajribalar 1 ga maydonda sinovdan o'tkazildi. Dastlab haftalik interval bilan har 50 metr oraliq masofada tadqiqotni amalga oshirildi. Tanlangan fermer xo'jalikning 1 ga maydonga 5 dona feromon tutqich ilindi va feromon tutqich o'ziga jalb qilish xususiyati yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кимсанбоев Х.Х., Йўлдошев А.Й., Зоҳидов М.М., Халилов К.Х., Сиддиқов И.Р., Қосимов Т.А., Ўсимликларни кимёвий ҳимоя қилиш. - Тошкент. - 1997.
2. Клечковский Ю.Э., Черней Л.Б., Вовкодуб О.Н., Томатная моль – новая угроза сельскому хозяйству. Защита и карантин растений. - №4. - 2014.
3. Маматов К. Томатная мол. Журнал «Сельское хозяйство Узбекистана». - № 11, - 2016.
4. Равашдех Ш.Х., Абдул-Азиз, Заес В.Г., Томатная минирующая мол – опасный карантинный вредитель томата. Защита и карантин растений. №12. – 2011.
5. Ўзбекистон Республикаси Кимёлаштириш ва Ўсимликларни ҳимоя қилиш воситалари Давлат комиссияси “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ўсимлик зараркунандалари, касалликларга ва бегона ўтларга қарши фойдаланиш учун рухсат этилган кимёвий ва биологик ҳимоя воситалари, дефолиантлар ҳамда ўсимликларнинг ўсишини бошқарувчи воситалар РЎЙХАТИ”. - Тошкент. - 2016.
6. Хўжаев Ш.Т. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари. – Тошкент. – 2019.
7. Хўжаев Ш.Т., Агротоксикология асослари ҳамда тадқиқот ўтказиш қоидалари. – Тошкент. - 2018.
8. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги экинлари зараркунандалари. - Тошкент. - 1962.